



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

KOMMUNIKATSIYA JARAYONIDA NOVERBAL VOSITALARNING LINGVOPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Madrahimova Maftuna Shokir qizi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, tayanch doktorant

Annotatsiya

Mazkur maqolada kommunikatsiya jarayonida noverbal vositalarning lingvopsixologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda mimika, jest, tana harakatlari, intonatsiya va pauza kabi noverbal birliklarning inson ruhiy holatini ifodalashdagi oʻrni yoritiladi. Shuningdek, verbal va noverbal vositalarning oʻzaro munosabati, ularning kommunikativ taʼsirchanlikni oshirishdagi funksional ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan asoslanadi.

Kalit soʻzlar: mimika, intonatsiya, jest, verbal va noverbal birliklar, psixolingvistika, paralingvistika

ЛИНГВОПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ НЕВЕРБАЛЬНЫХ СРЕДСТВ В ПРОЦЕССЕ КОММУНИКАЦИИ

Мадрахимова Мафтунa Шокир кизи

Ургенчский государственный университет имени Абу Райхана Беруни, базовый докторант

Аннотация

: В данной статье анализируются лингвopsихологические особенности невербальных средств в процессе коммуникации. В исследовании освещается роль таких невербальных единиц, как мимика, жесты, телодвижения, интонация и пауза, в выражении психологического состояния человека. Также научно-теоретически обосновываются взаимоотношения вербальных и невербальных средств, а также их функциональная значимость в повышении коммуникативной выразительности. В статье роль невербальных средств в передаче эмоционально-экспрессивного содержания рассматривается на основе лингвopsихологического подхода.

Ключевые слова: мимика, интонация, жест, невербальная коммуникация, вербальные и невербальные единицы, лингвopsихология,

LINGUOPSYCHOLOGICAL FEATURES OF NONVERBAL MEANS IN THE PROCESS OF COMMUNICATION

Madrahimova Maftuna Shokir qizi

Urgench State University named after Abu Rayhan Beruni. Doctoral Student

Abstract

This article analyzes the linguopsychological features of nonverbal means in the process of communication. The study highlights the role of such nonverbal units as facial expressions, gestures, body movements, intonation, and pauses in expressing a person's psychological state. It also provides a scientific and theoretical basis for the interrelation between verbal and nonverbal means and their functional significance in increasing communicative effectiveness. Furthermore, the article examines the role of nonverbal means in conveying emotional and expressive content based on a linguopsychological approach.

Keywords: facial expressions, intonation, gestures, nonverbal communication, verbal and nonverbal units, linguopsychology, paralinguistics.

Verbal va noverbal kommunikatsiya masalasi tilshunoslik, psixologiya, semiotika hamda psixolingvistika fanlarining muhim tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi. Insonlar oʻrtasidagi muloqot jarayoni faqat til birliklari orqali emas, balki turli mimik, jestik va paralingvistik vositalar orqali ham amalga oshadi. Shu sababli kommunikativ jarayonni toʻlaqonli anglashda verbal va noverbal vositalarning oʻzaro uygʻunligini tadqiq etish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, tabiiy nutqni kuzatib boruvchi yordamchi vositalar insonning ruhiy holati, hissiy kechinmalari va kommunikativ maqsadini yanada aniqroq ifodalashga xizmat qiladi.

Kommunikatsiya jarayonidagi noverbal vositalarning ilmiy asosda oʻrganilishi dastlab Charles Darwin tadqiqotlarida kuzatiladi. Olim oʻzining *The Expression of the Emotions in Man and Animals* asarida yuz ifodalari va tana harakatlarini inson kommunikatsiyasining tabiiy shakli sifatida talqin etadi

hamda: “The movements of expression in the face and body serve as the first means of communication” deya ta’kidlaydi. Ushbu fikr inson hissiyotlari dastlab mimika va tana harakatlari orqali namoyon bo’lishini ko’rsatadi. Darvinning mazkur qarashlari keyinchalik noverbal kommunikatsiya nazariyasining shakllanishiga muhim metodologik asos bo’lib xizmat qilgan [1; 25-b.].

Kommunikatsiyada noverbal vositalarning ustuvorligini Albert Mehrabian ham alohida ta’kidlaydi. U o’zining *Silent Messages* asarida: “Nonverbal communication is the most immediate, powerful, and honest form of communication” deb yozadi. Ushbu fikrga ko’ra, inson hissiyotlari va ichki munosabati ko’pincha so’zdan ko’ra mimika, intonatsiya va tana harakatlari orqali tabiiyroq namoyon bo’ladi. Shu sababli noverbal vositalar kommunikativ ta’sirchanlikni oshiruvchi asosiy omillardan biri sifatida qaraladi. Olimning fikricha, inson hissiyotlari va munosabati ko’pincha yuz ifodasi, intonatsiya va tana harakatlari orqali aniqroq namoyon bo’ladi. U emotsional mazmunni qabul qilishda verbal birliklar 7 %, ovoz ohangi 38 % va mimika hamda tana harakatlari 55 % ulushga ega ekanligini qayd etadi [2; 19-b.].

Nutqiy faoliyat jarayoni psixolingvistika tadqiqotining obyekti hisoblanadi. Ya’ni, nutqiy jarayon orqali insonning ruhiy holati, uning ichki olami, ruhiyatidagi o’zgarishlarning aks etishi va, albatta, uning tinglovchiga ta’siri masalalari o’rganiladi. Bundan tashqari, nutqiy jarayondagi suhbatdoshning o’zini tutishi, odob-axloq, so’zlashuv etiketi, ya’ni nutq madaniyati kabilar ham psixolingvistikaning tadqiqot manbai hisoblanadi. Professor S. Mo’minov ham “muloqot inson fiziologiyasi va psixologiyasi bilan uzviy bog’liq. Negaki, har qanday nutq tafakkur bilan, tafakkur esa ruhiyat bilan bog’liq. Tanani ruh boshqarib turganidek, ruhga ta’sir etgan barcha narsa tanaga ham ta’sir etadi”, degan [3; 21-b.].

Sh. Safarov tashqi nutqni “tafakkurga lisoniy libos berish” deb ta’riflaydi. Imo-ishora, mimika, tana harakatlari kommunikatsiyada ishtirok etuvchi qo’shimcha vositalar sanaladi. Ular axborot uzatishga, uning mazmunini to’ldirishga xizmat qiladi. Bu ko’proq jonli nutqda namoyon bo’ladi va so’zlovchining fikrini qisqa, lo’nda, ta’sirchan ifodalash maqsadida qo’llaniladi. Ma’lum axborotni yetkazish jarayonida qo’l, bosh, yelka, gavda, yuz harakatlari, ovozning baland-pastligi, cho’ziqligi yoki qisqaligi ham ma’no ifodalaydi. Va aksincha, tinglovchi olayotgan informatsiyaga munosabati ham uning yuz ifodasidan sezilib turadiki, so’zlovchi shunga qarab keyingi jummalarni tuzishda tinglovchiga moslashadi [4; 6-b.].

Psixolingvistik tahlillarda paralingvistik vositalarga nutqning ta’sirchanligini oshiruvchi omil sifatida qaraladi. G. V. Kolshanskiy paralingvistik vositalar subyektning verbal kommunikatsiyasidagi chala tomonlarni to’ldiradigan kommunikativ vosita ekanligini aytadi [5]. G. M. Nikolayeva kommunikatsiyada ishtirok etuvchi yordamchi vositalarni noverbal kommunikatsiya va paralingvistika doirasida tahlil qilib, ularni uch asosiy guruhga ajratadi. Ularning tasnifi keyinchalik psixolingvistika va kommunikatsiya nazariyasida keng qo’llanilgan.

Olimlar fikriga ko’ra, axborot uzatish jarayonida til birliklari bilan bir qatorda turli yordamchi vositalar ham faol ishtirok etadi. Bu vositalar kommunikativ ma’noni kuchaytiradi, hissiy-ekspressiv mazmunni ochib beradi hamda nutqning ta’sirchanligini oshiradi. Shunga ko’ra, ular quyidagi uch guruhni farqlaydilar [6].

Tabiiy nutqni kuzatib boruvchi noverbal vositalar.

Tabiiy nutqni kuzatib boruvchi noverbal vositalar nutq bilan birgalikda ishlatiladi va muloqot jarayonida ma’no va hissiy holatni yanada aniqroq yetkazishga yordam beradi. Noverbal vositalarga mimika, qo’l va barmoqlar harakati orqali fikrni kuchaytiruvchi jestlar, ko’z qarashlari, nutq jarayonidagi suhbatdoshning tasdiqlovchi yoki inkor etuvchi bosh harakatlari, tana holati kabilar kiradi. Masalan, yuz mushaklari orqali kulish, qosh chimirish yoki hayrat kabi hissiy holatni ifodalovchi mimika nutq jarayonida aytilgan fikrning tinglovchiga qanday ta’sir etayotganini bilib olish imkonini beradi.

Bosh harakati orqali tinglovchi tasdiq yoki inkor ma’nolarini so’zsiz ifodalashi, boshni qimirlatish orqali “ha”, chayqash orqali esa “yo’q” ma’nolarini yetkazishi mumkin.

Mimika (yuz ifodasi) orqali hissiy holatni yoritish mumkin. Kulish mamnunlik, sevinch va xursandchilikni, qosh chimirish esa g’azab va norozilikni ifodalaydi.

Jestlar (qo’l harakatlari) ham alohida ahamiyatga ega bo’lib, fikr yoki buyruqni hech qanday so’zsiz ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi. So’zlovchi qo’l bilan ishora qilgan holda kimnidir chaqirishi (unga qarab turgan odamni) yoki kaftini sal yuqoriga ko’tarish orqali to’xtash ishorasini ko’rsatishi mumkin.

Nutq jarayonida qo’llaniluvchi yana bir muhim noverbal vositalardan biri bu ko’z hisoblanadi. Ko’z orqali so’zlovchi ham, tinglovchi ham nutqqa bo’lgan hissiy munosabatini bildiradi. Biroq bu yerda milliy mentalitetni ham hisobga olish kerak, chunki ingliz va o’zbek mentalitetida nutq jarayonida suhbatdoshga qarash yoki qaramaslik har xil tushuniladi. Misol uchun, inglizlarda nutq jarayonida

suhbatdoshga qarash bu e'tibor va hurmat bo'lsa, ko'zni olib qochish inson bilan uchrashishni istamaslik, hurmatsizlik va befarqlik sanaladi. O'zbek mentalitetida esa suhbatdoshga ko'p ham qaralmaydi. Ayniqsa, suhbatdoshlar ayol va erkak yoki yoshi katta inson bilan yoshlar o'rtasidagi suhbatlarda odatda ko'zga qaramaslik hurmat, uyat va tortinish kabi ma'nolarni bildiradi.

Bundan tashqari, tana holati ham inson ruhiy holatini gavda orqali ko'rsatadi. Yelkalarni qisish qo'rquv, hadik, ortiqcha mulozamat, laganbardorlik, ilojsizlikni, gavdani tik tutish esa o'ziga bo'lgan ishonch, qat'iyat, mansab va takabburlik kabilarni ifodalashi mumkin.

Badiiy adabiyot namunalarida verbal va noverbal vositalardan asar qahramonlarining ichki holatini hamda syujetni yanada yaqinroq his qilish uchun keng foydalaniladi. Misol uchun, Ernest Heminguey hamda Abdulla Qodiriy, Tog'ay Murod asarlarida yozuvchilar ushbu vositalarning har ikkalasidan ham mohirona foydalangan holda o'z asarlarini yaratgan. Misol uchun:

– Ruhoniy zerikib qoldi. Ruhoniy oyimtillalarsiz o'tirolmaydi.

– Zerikkanim yo'q, – dedi kashish.

– Ruhoniy zerikyapti. Ruhoniy urushda avstriyaliklar yutib chiqishi tarafdori, – dedi kapitan.

Boshqalar uning og'ziga qarashdi. Ruhoniy boshini chayqab qo'ydi.

– Yo'q, – dedi u [7].

Yuqorida keltirilgan jumlada “boshini chayqab qo'ydi” ifodasi kapitanning fikriga qarshilik bildirib, “yo'q” so'zi bilan birga ishlatilganda mutlaq o'z pozitsiyasini bildirib, qarshilik ma'nosini anglatadi.

Inson juda murakkab mavjudot. Uning ruhiyatida, his-tuyg'ularida bo'layotgan o'zgarishlar bevosita nutqida ham ifoda topadi. Quvonch, shodlik, g'am, alam, qayg'u, achinish, armon, og'riq, iztirob, o'kinch, g'azab, nafrat, ochlik, to'qlik va hokazolar adabiyotda turli til birliklari orqali aks etadi.

Nutq ifodasi o'rnida qo'llaniluvchi noverbal vositalar so'z ishlatmagan holda ham kommunikativ ma'noni yetkazishga imkon beradi. Bunday vositalar kundalik muloqotda ham, badiiy adabiyotda ham keng foydalanilib, so'zlovchilar va qahramonlarning ichki holatini tasvirlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Nutq o'rnida qo'llanuvchi noverbal vositalar ham xuddi nutqni kuzatib boruvchi noverbal vositalar kabi mimika, qo'l harakatlari (jestlar), ko'z qarashi, bosh harakati va tana holati kabilarni o'z ichiga oladi.

Noverbal (so'zsiz) vositalar muloqotning hissiyligi va ta'sirchanligini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi. Bilamizki, har doim ham nima his qilayotganimizni so'z bilan tasvirlab keta olmaymiz. Ba'zan so'zlar yetarli emasdek tuyuladi, ba'zan esa o'zini so'z bilan tushuntirishga hojat bo'lmaydi yoki hayotda shunday vaziyatlar bo'ladiki, inson so'z bilan ayta olmaganlarini ko'z bilan aytadi. Shunday holatlar bo'ladiki, insonlar bir-birini so'zsiz ham anglay oladi. Bu jarayon esa insoniylik, qalban tushunish va bir-birini anglash demakdir.

– Pulingiz bormi?

– Bor.

– Menga ellik lir berib turing.

Men qo'limni artib, devorga ilig'liq turgan frenchimning cho'ntagidan hamyonni chiqardim. Rinaldi pulni olib bukladi-da, o'rnidan qo'zg'almay shimining cho'ntagiga soldi. U kulimsirab qo'ydi [7].

Yuqorida keltirilgan misolda “kulimsirab qo'ydi” iborasi noverbal vosita hisoblanib, nutq o'rnida qo'llanilgan va “minnatdorchilik” ma'nosini bildirgan.

Bola yashaydigan uyning eshigi ochiq edi, chol oyoq uchida ichkariga kirdi. Bola old xonadagi karavotda uxlab yotar, oynaning siniq nurida chol uni tanidi. U bolaning oyog'idan ohista ushladi va u uyg'onib, yelkasiga ag'darilib o'ziga qaramaguncha kutib turdi. Chol unga imo qildi; bola karavot yonidagi kursidan shalvarini olib, o'tirgancha kiyib oldi [8].

Yuqorida keltirilgan matnda ham paralingvistik vosita nutq o'rnida qo'llanib, mazmunni yetkazishga yordam bergan. Adressantning fikri va maqsadi so'zsiz ham tushunarli bo'lganini bolaning o'rnidan turib kiyimlarini kiyishni boshlaganidan ham bilish mumkin. Bunday holatlar kundalik hayotda ham keng qo'llanilib, so'z tejashga xizmat qiladi, ba'zan esa fikrning shundoq ham ma'lum bo'lganidan darak beradi. Quyidagi misolda ham nutq o'rnida ifodalanuvchi noverbal vosita qo'llanilgan:

– Tur! – uyg'otdi uni bola va qo'lini cholning tizzasiga qo'ydi.

Chol ko'zini ochdi va bir muddat qayerdandir uzoqlardan qaytayotganday bo'lib turdi. Keyin u jilmaydi [8].

Ushbu jumlada cholning jilmayishi muloyimlik, minnatdorchilik, bolaga bo'lgan mehr va uni o'ziga yaqin olish kabi ma'nolarni anglatadi.

Noverbal vositalar o'zbek adabiyotida ham juda keng qo'llanilib, badiiylilikni oshirishga,

qahramonlar nutqini reallashtirishga muhim hissa qo'shadi. Misol uchun, Tog'ay Murodning *Ot kishnagan oqshom* qissasida keltirilgan quyidagi vaziyatda noverbal vositaning mohirona qo'llanilganini ko'rish mumkin.

Men qayerga o'tirishni bilmay kalovlandim. Rixsiyev barmog'ini nish qilib, joy ko'rsatdi [9].

Ushbu vaziyatda ham birorta so'z aytilmadi, ammo vaziyat shu darajada tushunarli ediki, qahramonlarning maqsadi aniq bo'lib, ular so'zsiz bir-birini anglashdi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, nutq ifodasi o'rnida qo'llanuvchi noverbal vositalar so'z ishlatilmagan holatda ham kommunikativ ma'noni yetkazish imkonini beradi. Bunday vositalar kundalik hayotda ham, badiiy asarlarda ham qahramonlarning ichki holatini tasvirlashda keng qo'llaniladi. Demak, verbal va noverbal vositalar kommunikativ jarayonning o'zaro bog'liq tarkibiy qismlari hisoblanadi. Ayniqsa, badiiy asarlarda mimika, jest, ko'z qarashi, tana holati kabi noverbal vositalar qahramonlarning ichki ruhiy holatini, hissiy kechinmalarini va xarakter xususiyatlarini ochib berishda muhim badiiy vosita sifatida xizmat qiladi. Shu jihatdan verbal va noverbal vositalarni kompleks tarzda o'rganish lingvopsixologik hamda qiyosiy adabiyotshunoslik tadqiqotlari uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Darwin, C. The Expression of the Emotions in Man and Animals. – London: John Murray, 1872.
2. Mehrabian, A. Silent Messages. – Belmont, California: Wadsworth Publishing Company, 1971.
3. Muminov S. O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari: filol. fan. dok. ... diss. – Toshkent, 2000.
4. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006.
5. Колшанский Г. В. Паралингвистика. – М.: Наука, 1974. – С. 6.
6. Николаева Т. М. Паралингвистика. – М.: Наука, 1972.
7. Хемингуэй Э. Прощай, оружие! – М.: Художественная литература, 1981.
8. Хемингуэй Э. Старик и море. – М.: Художественная литература, 1980.
9. Tog'ay Murod. Ot kishnagan oqshom. – Toshkent: Sharq, 1994.